

FAVQULODDA VAZIYATLAR, ULARNING TURLARI VA XUSUSIYATLARI.

Xamrayev Abrorxon Axmadxonovich

Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tuman, Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i, podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Akademiyasi Fuqaro muxofazasi Instituti 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549797>

Favqulodda vaziyat - odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida" 455-sonli qaroriga (1998 yil 27 oktyabr) asosan favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra Texnogen, Tabiiy va Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarga bo'linadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab Lokal, Mahalliy, Respublika va Transchegara turlariga bo'linadi.

Lokal favqulodda vaziyatga, 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar FV paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmagan hamda FV zonasi ishlab chiqarish ob'ekti yoki ijtimoiy maqsadli ob'ekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan FV tegishli bo'ladi.

Mahalliy favqulodda vaziyatga 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p bo'lmagan hamda FV zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan FV tegishli bo'ladi.

Respublika favqulodda vaziyatiga, 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortiq bo'lgan hamda FV zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan FV tegishli bo'ladi.

Transchegara favqulodda vaziyatga, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda vaziyat chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxl qiladigan FV tegishli bo'ladi.

I. TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR.

1. Transport avariylari va halokatlari: ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan aviahalokatlar;

yong'inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalarida, vokzallar binolarida va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temiryo'l transportidagi halokatlari va avariylar (ag'darilishlar); portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan, yo'l-transport hodisalari; odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlari, avariylar, yong'inlar; gaz, neft va neft mahsulotlarining (avariya holatida) otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo'ladigan magistral quvurlardagi avariylar.

2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar: atrof-tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarning odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar.

3. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar: texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, Favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong'inlar va portlashlar; odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limiga olib kelgan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariylar, yong'inlar va jinlar qo'porilishi.

4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariya: sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TESlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug'qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariya va yong'inlar; aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishiga olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob'ektlardagi avariya; atmosfera, tuproq, er osti va er usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.

5. Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi ob'ektlar, shuningdek uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya: sanitariya - himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'lgan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigandan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob'ektlardagi avariya; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariya; atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug'diruvchi radioaktiv chiqindilar to'plagichlardagi, chiqindixonalaridagi, ishlab to'plagichlardagi va zaharli moddalar ko'miladigan joylardagi avariya (o'pirilishlar); radioizotop buyumlarning yo'qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

Geologik xavfli hodisalar:

- odamlar o'limiga, ma'muriy-ishlab chiqarish binolarining, texnologik asbob-uskunalarining, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarining va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

Zilzila - yer qobig'ida yoki yuqori mantiyadagi to'satdan surilishlar va yorilishlar oqibatida yuzaga keladigan va birkar to'lqinlar ko'rinishida uzoq masofalarga uzatiladigan yer osti silkinishlari va yer usti tebranishlari.

Yer qobig'idagi seysmik to'lqinlar tarqalayotgan nuqtani zilzila gipotsentri deyiladi. Yer yuzasining gipotsentr ustidagi joyi epitsentr deyiladi.

Zilzila kuchi 12 balli seysmik shkala (MSK-64) bilan o'lchanadi. Zilzilaning energetik tasnifi uchun magnitudadan foydalaniladi. Tektonik zilzilalar barcha yer silkinishlarining 80-85% ni tashkil etadi.

- odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

Ko'chki - tog' va jar yonbag'irlaridan, dengiz, ko'l va daryolarning tik qirg'oqlaridan tuproq va tog' jinslarining og'irlik kuchi ostida pastga siljishi.

Gidrometeorologik xavfli hodisalar:

- odamlar o'limiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishloq xo'jaligi ob'ektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar;

Suv toshqini - qor erishi, jala (kuchli yomg'ir), suvning shamol yordamida haydab kelinishi, muz bo'laklarining tiqilishi va boshqa holatlarda daryo, ko'l yoki dengiz suvlari sathining keskin ko'tarilishi oqibatida quruqlikning anchagina qismini suv ostida qolishi.

Sel - tog' daryolari o'zanlarida to'satdan yuzaga keluvchi katta hajmdagi tog' jinslari bo'laklari, xarsanglar va suv aralashmasidan iborat vaqtinchalik shiddatli oqim.

- aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

Qor ko'chkisi - 20-30 m/soniya va undan ortiq tezlik bilan harakatlanayotgan Dovul - tezligi 120 km/s, er yuziga yaqin joyda 200 km/s ni tashkil etuvchi shamol.

Quyun - momoqaldir oq bulutida yuzaga keluvchi va ko'pincha er yuzasigacha diametri o'nlab va yuzlab metr ga etuvchi xartum shaklida cho'ziluvchi shamol. U uzoq muddat davom etmaydi, bulut bilan birgalikda harakat qiladi.

Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: o'lat, vabo, sarg'ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;

odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar — epidemik toshmalı terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma; zoonoz infeksiyalar - Sibir yarasi, quturish;

virusli infeksiyalar - SPID; epidemiya - alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo'lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo'lgan odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida - 50 kishi va undan ortiq;

EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR.

1. Quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

- halokatli ko'chkilar - foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;

- tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

- havo muhitining quyidagi ingredientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

- oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tUSDagi boshqa zararlı moddalar;

- katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;

FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINING HARAKATLARI.

Zilzila, uning oqibatları, etkazilishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish yo'llari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. Xavfli sharoitda mohirona va qat'iyatli harakat qilishga ma'nan va ruhan o'zini tayyorlash.

Zilzilaga qanday tayyorlanish kerak? Avvaldan uyda, ishda, kinoda, teatrd, transportda va ko'chada bo'lgan vaqtingizda zilzila yuz bergudek bo'lsa, harakat qilish rejasini tuzib qo'ying. Xavfli va xavfsiz joylarni aniqlang. Oila a'zolaringizga zilzila vaqtida qanday harakat qilishlari lozimligini tushuntiring va ularni birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga o'rgating. Hujjatlar, pullar, cho'ntak fonari va

batareykalarni qulay joyda saqlang. Uyda bir necha kunga etarli ichimlik suvi va oziq-ovqat zaxirasi bo'lishi kerak.

Krovatlarni deraza va tashqi devordan nariroqda joylashtiring. SHkaf, tokcha va javonlarni devorlarga mahkamlang, yuqorida joylashgan tokchalar va antresollardagi og'ir buyumlarni pastga oling. Xavfli moddalar (kimyoviy, engil alanganuvchi suyuqliklar)ni ishonchli, yaxshi berkitiladigan joylarda saqlang. Zaruriyat tug'ilganida o'chirish uchun elektr, gaz va suv ta'minotini o'chirish jo'mraklari qaerda joylashganini barcha bilishi zarur.

Suv toshqini xavfi yuzaga kelganligi va evakuatsiya o'tkazish to'g'risidagi xabarni olgach, belgilangan tartibda xavfli hududdan xavfsiz xududga yoki tepaliklarga chiqing. O'zingiz bilan hujjatlar, qimmatbaho buyumlaringiz va uch kecha-kunduzga etadigan oziq-ovqat mahsulotlarini oling. Manzilga etib kelgach ko'chiriluvchilarni qabul qilish punktida ro'yxatdan o'ting.

Uydan chiqishdan oldin elektr, gaz tarmog'i va isitish pechlaridagi olovni o'chiring, binodan tashqaridagi suv olib ketishi mumkin bo'lgan barcha buyumlarni mahkamlang yoki ularni yordamchi binolarga joylashtiring. Vaqtingiz etarli bo'lsa, qimmatbaho uy jihozlarini yuqori qavatlariga yoki chordoqqa olib chiqing. Deraza va eshiklarni yoping, zarurat bo'lsa va vaqt imkon bersa, birinchi qavatdagi deraza va eshiklarni tashqi tomondan taxtalar bilan qoqib qo'ying. Evakuatsiya uyushgan holda o'tkazilmayotgan bo'lsa, yordam etib kelgunga va suv sathi pasaygunga qadar yuqori qavatlar va binolar tomidan, daraxtlar va tepaliklardan joy egallang. SHu bilan birga muntazam halokat signalini berib boring (kunduz kuni uzoqdan yaxshi ko'rinadigan ochiq rangli matoni osib qo'yish yoki silkitish bilan, tunda - yorug'lik signali va ovoz bilan). Qutqaruvchilar yaqinlashganda, suzuvchi vositaga o'ting. Bunda qutqaruvchilarning ko'rsatmalariga qat'iy amal qiling, suzuvchi vosita ustidagi yukning ko'payib ketmasligiga e'tibor bering. Harakat vaqtida o'rningizdan qimirlamang, qayiq chetiga o'tirmang, ekipaj a'zolarining talablarini bajaring. Suv ostida qolgan zonadan mustaqil ravishda chiqishga, faqatgina jiddiy sabablar (jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, suv sathining ko'tarilib borishi, yuqori qavatlar va chordoqlarni suv bosish xavfi) paydo bo'lganda tavsiya etiladi. Ammo ishonchli suzuvchi vosita bo'lsa, harakat yo'nalishini bilsangizgina shunday yo'l tutishingiz mumkin. Mustaqil harakat vaqtida halokat signalini berishni to'xtatmang.

Suvda qolganlar va cho'kayotganlarga yordam bering. Odam cho'kayotgan bo'lsa, unga suzuvchi vosita tashlang, harakatlarini qo'llab-quvvatlab turing, boshqalarni yordamga chaqiring. Jabrlanuvchiga yaqinlashar ekansiz, daryo oqimini hisobga oling. Agar cho'kayotgan odam o'z harakatlarini nazorat qilolmayotgan bo'lsa, unga orqa tomondan suzib borib sochidan ushlang va qirg'oqqa qarab suzing.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-qaroriga muvofiq "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasiga va unga qarashli avariya-qutqaruv va qidiruv xizmatlariga aviatsiya texnikasidan avariyasiz foydalanish va parvozlar xavfsizligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat aksiyadorlik kompaniyasiga temir yo'l transporti vositalaridan avariyasiz foydalanish, tashish chog'ida portlovchi, yong'in xavfi bo'lgan yuklar va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTZM) xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish, Davlat avtomobil nazorati organiga yo'l-transport xavfsizligini ta'minlash xizmatiga rahbarlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Sanoat va konchilik ishlarining bexatar olib borilishini nazorat qilish Davlat qo'mitasiga kon, ruda, kimyoviy, neft va gaz qazish hamda qayta ishlash sanoati va "Toshmetroqurilish" ob'ektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligi ustidan davlat nazoratiga rahbarlik qilish, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasiga ishlab chiqarish va texnologik jarayonning kuchli xavfli o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lgan avariya va halokatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, hamda idoraga qarashli ob'ektlarda avariya va halokatlarning kelib chiqishi ehtimollari va oqibatlarini bashoratlash, tarmoqning birlashmalari va ob'ektlarida favqulodda vaziyatlar chog'ida ishlarning barqarorligini oshirish vazifalari yuklatilgan. Bundan tashqari, soha xodimlarining muhofazalanish kafolatlari qonun asosida amalga oshiriladi.

Energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariya va halokatlarning oldini olish chora-tadbirlari:

Yordamchi tarmoqlar evaziga energiya ta'minotini barcha ob'ektlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

Texnik hujjatlarda ko'rsatilgan me'yor talablari bo'yicha rejaviy- profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida o'tkazilishi, barcha xavfsizlik choralari amal qilish, qolaversa barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va x.k.

Gaz tozalash qurilmalaridagi biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya va halokatlarning oldini olish chora-tadbirlari:

Yordamchi tarmoqlar evaziga muhandislik tarmoqlarining barqarorligini ta'minlash. Texnik hujjatlarda ko'rsatilgan me'yor talablari bo'yicha rejaviy- profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida o'tkazilishi, barcha xavfsizlik choralari amal qilish, qolaversa barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va h.k.

Muhofaza tadbirlari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-qaroriga muvofiq "O'zbekenergo"ga energetika tizimiga kiruvchi barcha ob'ektlardan avariyasiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini tashkil etish va amalga oshirish, hamda "O'zkommunxizmat" va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda iste'molchilarni hamda, birinchi navbatda, favqulodda vaziyatlar zonalaridagi hayotiy ta'minot ob'ektlarini elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari yuklatiladi.

Bundan tashqari energetika ob'ektlarining texnik holatini nazorat qiluvchi davlat xizmati orqali bu tizimdagi turli avariya holatlarini oldi olinadi.

References:

1. Ilyosova Z.F. «Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari». Toshkent: «Mehnat». 2001.
2. Nurxo'jaev A.K., Yunusov M.Yu., Xabibullaev I.X. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. Toshkent: «Universitet». 2001.
3. Tadjiev M., Ne'matov I. va boshq. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi. T. 2003.
4. Farmonov A.E., Igamberdiev A.R. va boshq. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent: «Universitet». 2006.
5. Ergasheva G.S., Akbarova G. O. "Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofazasi asoslari". Pedagogika oliy o'quv yurtlari biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi ixtisosligi talabalari uchun metodik qo'llanma. I-II qism. T. 2009.
6. G.S/Ergasheva va boshq. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. TDPU2016